Hamidova Nigora Ibrohimovna
University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Maktabgacha-Boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya kafedrasi o'qituvchisi
E-Mail: hamidovanigora90@gmail.com, Tel: +998937118116

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10419225

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni shakllantirish uchun qo'llaniladigan turli-xil metodlar, sog'lom shaxs fikrini shakllantirish, avtoritar texnologiyalar, didaktik markazlashgan texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, o'qitishda o'quvchi shaxs sifatida shakllanishi, ushbu texnologiyalarni ona tili darslaridagi samarasi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Shaxs, texnologiya, ona tili, didaktik texnologiya, avtoritar texnologiya, sub'ekt, ob'ekt, pedagog, demokratizm.

Ta'kidlash joizki, 2030-yilgacha xalq ta'limi tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi ta'limda amalga oshiriladigan ishlar yetarlicha batafsil ishlab chiqilgan bo'lib, ko'plab g'oya va yondashuvlarni, jumladan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizmini, yangi pedagogik texnalogiyalarni o'z ichiga oladi. Jumladan O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni isloh qilishning asosiy omillaridan biri komil inson tarbiyasida "shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi" masalalaridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori [3; 3-5 b.], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Boshlang'ich ta'lim faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son Qarori [4; 1-3 b.], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 22- dekabrdagi "Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son Qarorlarida [5; 3-5 b.] ifoda etilgan boshlang'ich ta'lim jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan "shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi" g'oyalarining muhim ahamiyati ko'rsatib berilgan. O'zbekistonda shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi mamlakatimizning ravnaqiga hissa qo'shuvchi davlat siyosati darajasidagi masalalardandir. Eng muhimi, bizning shunchaki sifatli ta'lim tizimi yoki yangi pedagogik texnologiyalar, yangi kadrlar va darsliklarga emas, balki to'la kelajakka qaratilgan yangi ta'lim tizimiga ehtiyojimiz bor. Chunki hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarning asosi shaxsni shakllantirishga va ta'limga borib taqaladi. Albatta kelajakda aynan ta'lim dargohlaridan jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqishi nazarda tutilmoqda. Shu jihatdan, zamon talablariga, mos irodali, har tomonlama, mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g'oyasiga qaratilgan yosh avlodni shaxsini shakllantirish bugungi ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Xo'sh bugungi kun pedagoglari o'z faoliyatlari mobaynida o'quvchilar shaxsni shakllantirish uchun qanday ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kerak. Yoki shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlardan qay tarzda foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun dastlab pedagogik jarayonda o'quvchi va o'qituvchi munosabatiga yo'naltirilgan texnologiya turlarini ko'rib chiqamiz;

Avtoritar texnologiyalar. O'qituvchi asosiy sub'yekt boshqaruvchi, talab qiluvchi, yetaklovchi sifatida maydonga chiqadi. O'quvchi shaxsi esa tobe bo'lib, barcha tal-

ablarni bajarishi kerak. Bunda o‘quvchining qiziqishlari va ehtiyojlari ta’limni tashkil etish jarayonida e’tiborga olinmaydi. Ayniqsa ona tili darslarida berilgan topshiriqlar va mashqlar asosida bir qolipda darslar tashkil qilinadi. O‘quvchilar bajaruvchi sifatida maydonga chiqadi. Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona subyekt sifatda namoyon bo‘ladi, o‘quvchilar esa faqatgina «ob’yekt» vazifasini bajaradi xolos. Bunda o‘quvchining tashabbusi va mustaqilligi yo‘qoladi, o‘qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an’anaviy o‘qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo Ya.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika tamoyillariga asoslangan o‘qitishning «sinf-dars» tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanuzgacha dunyoda eng ko‘p tarqalgan o‘qitishning «sinf-dars» tizimi hisoblanadi, u quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- Yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo‘lgan o‘quvchilar sinfni (guruhni) tashkil etadi:
- Sinf (guruh, oqim) yagona o‘quv reja, yagona o‘quv dasturlar va yagona mashg‘ulotlar jadvali bilan shug‘ullanadi;
- Mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars bo‘lib, u bitta fanning bitta mavzusiga bag‘ishlanadi va o‘qituvchi tomonidan boshqariladi;
- O‘quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo‘llaniladi.

An’anaviy o‘qitish asosan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, shaxsning rivojlanishini ko‘zda tutmaydi. An’anaviy o‘qitish asosini, Ya.A.Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika tamoyillari tashkil etadi:

- ilmiylik;
- tabiatga monandlik (o‘qitish rivojlanish bilan belgilanadi va shakllanmaydi);
- uzviylik va tizimlilik;
- o‘zlashtiruvchanlik (ma’lumdan noma’lumga, soddadan murakkabga);
- mustahkamlash (takrorlash, mustahkamlash…)
- onglilik va faollik;
- nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi;
- yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish.

An’anaviy o‘qitish nafaqat ona tili va boshqa fanlarda ham quydagi xususiyatlarga ega:

- zo‘ravonlik pedagogikasi;
- o‘qitishning tushuntiruv-ko‘rgazmali usuli;
- ommaviy o‘qitish.

An’anaviy o‘qitishda avtoritorlik texnalogiyalari quyidagi shaklda namoyon bo‘ladi:

O‘quvchi bu hali to‘la shakllanmagan shaxs, sifatida qaraladi. Ular faqat bajarishi zarur, berilgan topshiriqlar asosida, ona tili darslarida berilgan mashqlarni bajarishadi. Pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs sifatida qaralgan. Shu sababli an’anaviy o‘qitishda o‘quvchi shaxs sifatida shakllana olmagan.

Didaktik markazlashgan texnologiya. Bu texnologiya markazida ta’lim jarayoni turadi. Aynan didaktik vosita yordamida shaxsni shakllantirish, unda kasbiy ko‘nikmalarni hosil qilish maqsad qilib qo‘yiladi. Bunda o‘qituvchi yetaklovchi (amaliyotchi) sifatida maydonga chiqadi. Ikki tomon ham (o‘qituvchi va o‘quvchi) bir xil pozitsiyani egallaydi. Asosiy maqsad ta’lim olish va tomonlar hamkorlikda ish olib boradilar. Buni biz o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi jarayon deb fikr yuritishimiz mumkin. Didaktik o‘yinlar – o‘rganilayotgan ob’yekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o‘yinlar ishtirokchilar tomonidan ijtimoiy foydali mehnat va o‘qish ko‘nikmalarini faol o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi;

Bu kabi o‘yinlar ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ulardagi turli psixologik zo‘riqishlarni kamaytiradi. Didaktik markazlashgan texnologiyalardan ona tili darslarida “So‘zdan-so‘z”, “O‘z o‘rningni top”, “Mening uyim qayerda” kabi didaktik

o‘yinlardan foydalanishimiz mumkin. Bunday didaktik o‘yinlar jamoada ko‘proq amalga oshilganligi uchun jamoani shakllantirshni amalga oshiradi [6;115-119 b.l

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya.

Bu ta’lim texnalogiyasi tizimining markazida o‘quvchi shaxsi turadi. O‘quvchining rivojlanishiga sog‘lom psixologik muhitni tashkil qilish, nizo va inqirozlardan asrash, tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirish, o‘quvchining qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan. O‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo‘ladi:

- insonparvarlik, ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘rlashdan to‘la voz kechish;
- hamkorlik, ya’ni pedagog va o‘quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- erkin tarbiyalash, ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi pedagogik jarayonda o‘quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi. O‘quvchining shaxsini shakllantirish uchun nafaqat o‘qituvchi balki ota-onalar bilan ham hamkorlikda ish olib borish kerak.Psixologik nuqtai nazardan qaraganda o‘quvchilarning barmoqlariga qarab ham ularni shaxs sifatida shakllantirish mumkin. Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda o‘qituvchi quyidagilarni amalga oshirish zarur bo‘ladi. Har bir o‘quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko‘rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish, pedagogda barcha o‘quvchilar iste’dodli degan ishonch bo‘lishi kerak. Shaxsga, yutuqni ma’qullovchi, qo‘llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya’ni o‘qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak. Bevosita majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg‘u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik, pedagogik jarayonda, o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko‘maklashish talab etiladi. Hozirgi kunda top beshtalik metodlardan biri hisoblangan “To‘rt taraf” metodi boshlang‘ich sinf ona tili darslarida shaxsni shakllantirish, darsga bo‘lgan ma’sulyatni oshirish, o‘quvchilarni diqqatini jamlash, mustaqil fikrlash, shaxs sifatida o‘zini tahlil qilish, o‘z oldiga maqsadlar qo‘yish kabi qobilyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanidan bilim va ko‘nikma va malakalar og‘zaki va yozma tarzda amalga oshirilganligi uchun bu metod o‘quvchini ham og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga hizmat qiladi. Og‘zaki nutqi rivojlangan, mustaqil fikrga ega o‘quvchi, shaxs sifatida sekin- asta rivojlanib boradi [7; 236-b.].



Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim tizimini tubdan isloh qilish jarayoniga oid shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni joriy qilish ijtimoiy zarurat hisoblanadi. Bu ko‘rsatma va ma’lumotlarni amalda qo‘llash bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim sinflari muammolari bilan shug‘ullanuvchi barcha O‘qituvchi-o‘quvchilari uchun nihoyatda muhim va dolzarb vazifadir. Ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni bolalar bog‘chalari amaliy hayoti bilan bog‘lab, muammolarni hal qilish alohida ahamiyatlidir. Bunda boshlang‘ich ta’lim sinflarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish, bunday vazifalarni tadqiq etish ham muhimdir. Chunki, bu vazifalar birinchidan, bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlashga, intellektual, ruhiy, estetik, jismoniy rivojlanishini ta’minlashga, ikkinchidan, ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga, uchinchidan, Vatanga, tabiatga muhabbatni shakllantirishga xizmat qiladi. Xullas, boshlang‘ich sinflarda fanni o‘qitish jarayonida foydalaniladigan didaktik o‘yinli darslarning va shaxsga yo‘naltirilgan texnalogiyalarning quyidagi afzalliklari mavjud:

O‘quvchilar didaktik o‘yinli darslarga katta qiziqish bilan tayyorgarlik ko‘radilar, natijada yangi bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi sifatli bo‘ladi; - shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilk bor kasb tanlashida o‘z kuchi, bilimi, iqtidorini sinab ko‘rishda, shuningdek, ularni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16 -dekabrdagi “Boshlang‘ich ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ 595-son Qonuni

2. “Boshlang‘ich ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-son Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi O‘zbekiston Respublikasi boshlang‘ich ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Boshlang‘ich ta’lim faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son Qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 22- dekabrdagi “Boshlang‘ich ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarorlarida

6. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchanov E.U. Pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorot.T.: ‘‘IQTISOD-MOLIYA 2009

7. Karima Qosimova, Safo Matchanov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldasheva, Sharofjon Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi. T.:Bayoz nashiryoti 2022.

Khamidova Nigora Ibrahimovna
University of Business and Sciens non-state higher education institution
Teacher of the Faculty of Pre-Primary Education and Physical Education
E-Mail: hamidovanigora90@gmail.com, Tel: +998937118116

PERSONALIZED LEARNING TECHNOLOGIES IN MOTHER TONGUE LESSONS IN PRIMARY SCHOOLS

Annotation: In this article, various methods used for personality formation in mother tongue classes, healthy personality formation, authoritarian technologies, didactic-centered technologies, person-oriented technologies, formation of a student as a person in teaching, personality or there are opinions about the effect of oriented technologies in mother tongue classes.

Keywords: Person, technology, native language, didactic technology, authoritarian technology, subject, object, pedagogue, traditional, democracy, individual.